



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

3 (77) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

3 (77)

2025

март

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.02.2025, Accepted: 09.03.2025, Published: 14.03.2025

UDK 616.24-053.2

BOLALARDA NAFAS A'ZOLARI VA PNEVMONIYANING UCHRASH CHASTOTASI

Bahodirov Behruz Shavkat o'g'li <https://orcid.org/0009-0001-4718-7138>
e-mail: bahodirov.behruz@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh.,
G'ijduvon ko'chasi, 23 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Rezume*

Ushbu maqolada 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda nafas a'zolari kasalliklari klassifikatsiya bo'yicha uchrash va hospitalizatsiya chastotasi haqida so'z boradi. Bolalar orasida nafas a'zolari ichida pnevmoniyalarning uchrash va hospitalizatsiya chastotalari aniqlangan statistik ma'lumotlar maqoladan joy olgan.

Kalit so'zlar: nafas a'zolari kasalliklari, o'tkir bronxit, obstruktiv bronxit, shifoxonadan tashqari pnevmoniya.

ЧАСТОТА ВСТРЕЧАЕМОСТИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ДЫХАТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ И ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ

Баходиров Бехруз Шавкат угли <https://orcid.org/0009-0001-4718-7138>
e-mail: bahodirov.behruz@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. Гиждуван, 23. Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Резюме*

В данной статье рассматривается частота встречаемости и госпитализации заболеваний дыхательных органов у детей до 18 лет согласно классификации. В статье представлены статистические данные о частоте встречаемости и госпитализации пневмонии среди детей.

Ключевые слова: Заболевания дыхательных органов, острый бронхит, обструктивный бронхит, внебольничная пневмония.

THE INCIDENCE OF RESPIRATORY DISEASES AND PNEUMONIA IN CHILDREN

Bahodirov Behruz Shavkat ogli <https://orcid.org/0009-0001-4718-7138>
e-mail: bahodirov.behruz@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara,
st. Gijduvon, 23. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

This article discusses the incidence and hospitalization rates of respiratory diseases in children under 18 years old according to classification. The article includes statistical data on the incidence and hospitalization rates of pneumonia among children.

Keywords: Respiratory diseases, acute bronchitis, obstructive bronchitis, pneumonia.

Dolzarbligi

B utunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2019 - yilda 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan 740 180 nafari pnevmoniyadan o'lgan va bu ko'rsatgich 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining 14 foizini tashkil etgan, bir yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida esa pnevmoniya jami o'limlarning 22 foizini tashkil qildi [1].

XKT 10 va "Bolalarda bronxopulmonar kasalliklarning klinik shakllari tasnifi" ga muvofiq, etiologiyasi bo'yicha ShTPning quyidagi shakllari farqlanadi: bakterial, virusli, zamburug'li, parazitlar, xlamidiya, mikoplazma, aralash. Ma'lumotlarning yetarli emasligi va mikrobiologik tadqiqotlarning sezilarli davomiyligi, tibbiy yordamga murojaat qilishdan oldin antibakterial dorilarni qabul qilishning keng tarqalganligi bemorlarning 50-70 foizida etiologik tashxisning yo'qligining sababidir [2-3].

Nafas a'zolari infeksiyalarning patogenlari, xususan, pnevmoniya qo'zg'atuvchilari turli xil bo'lib, ular orasida nafas a'zolari viruslar, pnevmotrop bakteriyalar va atipik patogenlar mavjud bo'lib, ular orasida mikoplazmalar ustunlik qiladi [4].

Adabiyotga ko'ra, pnevmoniya bilan kasallanish darajasi o'tkir nafas a'zolari infeksiya bilan kasallangan 100 kishiga 2 ta holatni tashkil etadi [5].

Shifoxonadan tashqari pnevmoniya (ShTP) rivojlanayotgan va sanoatlashgan mamlakatlarda kasallanish, kasalxonaga yotqizish va o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda [6].

Kasallikning maksimal darajasi 1-3 yoshga to'g'ri keladi: kuzatuvlarga ko'ra, kasallanish darajasi yiliga har 100 000 taga 600-800 oralig'ida bo'lib, ayrim yillarda 100 000 ga 1200 dan oshadi [7].

Tadqiqot maqsadi: 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda nafas a'zolari kasalliklari uchrash va gospitalizatsiya chastotasini o'rganish


Material va tadqiqot usullari

Buxoro viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi (BVKTTM) pulmonologiya bo'limida 2021-2023 yillar davomida nafas a'zolari kasalliklari bilan gospitalizatsiya qilingan bemorlar kasallik tarixini retrospektiv statistik tahlili o'tkazildi.

Maqolani retrospektiv tahlil, prospektiv tahlil, matematik statistik usullaridan foydalanib yozildi.

Natijalar va tahlillar

Buxoro viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida gospitalizatsiya qilingan bolalarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, pulmonologik kasalliklar oxirgi 3 yillikda 1,5 marta oshgani aniqlandi. (1 rasm).






1-rasm. Yillar kesimida pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bolalar soni.

So'ngi 3 yilda, Buxoro viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi Pulmonologiya bo'limida 2021-yilda 1221 nafar bemor bolalar, 2022-yilda 1465 nafar nafas yo'llari kasalliklari bilan kasallangan bemor bolalar, 2023-yilda esa 1831-nafar pulmonologik kasalliklar bilan og'rikan bolalar gospitalizatsiya qilinib, davolangan.

Oxirgi 3 yillik Buxoro viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bemor bolalarning statistik tahlilini ko'radigan bo'lsak, shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligi bo'yicha gospitalizatsiya yuqori o'rinda turganligini aniqladik.

Yuqoridagi statistik tahliliy diagrammadan shu ma'lumotlar aniq bo'ldiki, 2021-yilda umumiy pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bemorlardan 682 nafari shifoxonadan tashqari pnevmoniya tashxisi bo'yicha gospitalizatsiya qilingan. Bu esa umumiy nafas yo'li kasalliklarining 55,8 foizini tashkil qilgan. Undan keyingi o'rinni esa obstruktiv bronxit kasalligi bilan gospitalizatsiya qilingan bemor bolalar egallagan. Ularning absolyut soni 295 nafarni tashkil qilib, bu ko'rsatgich umumiy pulmonologik kasalliklarning 24 foizini tashkil qilgan. Ayni shu yilda keyingi o'rinda turgan nafas yo'li kasalliklari nozologik shakli bo'yicha esa o'tkir bronxit o'rin egallagan. O'tkir bronxit kasalligi bo'yicha 2021-yilda 73 nafar bemor bolalar gospitalizatsiya qilingan, bu ko'rsatgich umumiy respirator kasalliklar bilan murojaat qilgan bemor bolalarning 5,9 foizini tashkil qilgan.



2-rasm. Oxirgi 3 yillik pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bemor bolalarning statistik diagrammasi

2022-yilda pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bemorlardan 886 nafari shifoxonadan tashqari pnevmoniya tashxisi bo'yicha gospitalizatsiya qilingan. Bu esa umumiy nafas yo'li kasalliklarining 60,4 foizini tashkil qilgan. Undan keyingi o'rinni esa obstruktiv bronxit kasalligi bilan gospitalizatsiya qilingan bemor bolalar egallagan. Ularning absolyut soni 424 nafarni tashkil qilib, bu ko'rsatgich umumiy pulmonologik kasalliklarning 28,9 foizini tashkil qilgan. Ayni shu yilda keyingi o'rinda turgan nafas yo'li kasalliklari nozologik shakli bo'yicha esa o'tkir bronxit o'rin egallagan. O'tkir bronxit kasalligi bo'yicha 2022-yilda 123 nafar bemor bolalar gospitalizatsiya qilingan, bu ko'rsatgich umumiy respirator kasalliklar bilan murojaat qilgan bemor bolalarning 8,39 foizini tashkil qilgan.

2023-yilda pulmonologik kasalliklar bilan gospitalizatsiya qilingan bemorlardan 1155 nafari shifoxonadan tashqari pnevmoniya tashxisi bo'yicha gospitalizatsiya qilingan. Bu esa umumiy nafas yo'li kasalliklarining 63 foizini tashkil qilgan. Undan keyingi o'rinni esa obstruktiv bronxit kasalligi bilan gospitalizatsiya qilingan bemor bolalar egallagan. Ularning absolyut soni 538 nafarni tashkil qilib, bu ko'rsatgich umumiy pulmonologik kasalliklarning 29,3 foizini tashkil qilgan. Ayni shu yilda keyingi o'rinda turgan nafas yo'li kasalliklari nozologik shakli bo'yicha esa o'tkir bronxit o'rin egallagan. O'tkir bronxit kasalligi bo'yicha 2022-yilda 163 nafar bemor bolalar gospitalizatsiya qilingan, bu ko'rsatgich umumiy respirator kasalliklar bilan murojaat qilgan bemor bolalarning 8,9 foizini tashkil qilgan.

O'rganilgan yillar	18 yoshgacha bo'lgan bolalar soni (abs)	Bolalarda nafas a'zolari bilan kasallangan bolalar soni (abs)	Har 1000ta bolada nafas a'zolari kasalliklari uchrash chastotasi	Pnevmoniya bilan kasallangan bolalar soni (abs)	Har 1000ta bolada pnevmoniya kasalligi uchrash chastotasi
2021	571887	1221	2,13	682	1,19
2022	606160	1465	2,41	886	1,46
2023	625051	1831	2,92	1155	1,84
Umumiy	2363905	4517	2,48	2723	1,49

3-jadval. Bolalarda nafas a'zolari va pnevmoniyaning uchrash chastotasi

Buxoro viloyatida 18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida nafas a'zolari kasalliklari uchrash chastotasi 2021-yilda har 1000 ta boladan 2,13 tasida, 2022-yilda 2,41 tasida 2023-yilda 2,92 tasida uchrash ekan. Pnevmoniya uchrash chastotasi esa 2021-yilda har 1000 boladan 1,19 tasida, 2022-yilda 1,46 tasida, 2023-yilda 1,84 tasida uchradi.

Xulosa

Bundan ko'rinib turibdiki oxirgi 3 yilda bolalar orasida pulmonologik kasalliklar 1,5 baravarga ko'payib borgan.

Yuqoridagi statistik tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, Buxoro viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligi bo'yicha gospitalizatsiya qilingan bolalar 2021-yilda 682 nafar (55,8%), 2022-yilda 886 nafar (60,4%), 2023-yilda 1155 (63%) ni tashkil qilgan. So'ngi 3 yillikda pnevmoniya kasalligi pulmonologik kasallilarning 55,8 foizidan 63 foizga ko'paygan.

Bundan ko'rinib turibdiki oxirgi 3 yillikda 18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida nafas a'zolari kasalliklari uchrash chastotasi har 1000 ta boladan 2,13 tadan 2,92 taga ko'paygan. Pnevmoniya kasalligida esa bu ko'rsatgich har 1000 ta boladan 1,19 tadan 1,89 taga ko'paygan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. JSST, 2022. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/pneumonia>
2. B. B. S. (2022). Atypical Pneumonia in Children in Modern Conditions. // Scientific journal of applied and medical sciences, 2022;1(6):211-218. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/4494>
3. Bakhadirov Bekhruz Shavkatovich. (2023). To the Development of Atypical Pneumonia in Children Contributing Risk Factors. // American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149), 2023;1(10):203-207. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/1998>
4. Black SB, Shine-eld HR, Ling S, et al. Effectiveness of heptavalent pneumococcal conjugate vaccine in children younger than 7 years of age for prevention of pneumonia. // *Pediatr Infect Dis J.* 2022;21(9):810-815. doi: 10.1097/00006454-200209000-00005
5. Clark JE, Hammal D, Hampton F, et al. Epidemiology of community-acquired pneumonia in children seen in hospital. // *Epidemiol Infect.* 2017;135(2):262-269.
6. Jehovah N.V., Y.E.Rusakova, G.I. Kasheeva. – Pediatrics: textbook / 8th ed., Spanish. – Minsk; Higher School, 2019; 639 p. ISBN 978-985-06-23881
7. Koshkarina E.A., Strazhnova O.A., Sharabakina M.A., Chekanina O.M., Krasnov V.V., Zubarov P.G., Kovalishena O.V. Epidemiological features of community-acquired mycoplasma pneumonia. // *Fundamental and Clinical Medicine.* 2021;6(3):85-93. (In Russ.) <https://doi.org/10.23946/2500-0764-2021-6-3-85-93>

Qabul qilingan sana 20.02.2025